

UZVIYLIK VA IZCHILLIK PRINSIPLARI ASOSIDA O‘QUVCHILARNING O‘QUV-BILUV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

G.Abdiraimova

Qarshi xalqaro universiteti Muhandislik va pedagogika fakulteti “Itimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasи o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ta’lim tizimining asosiy prinsiplari, ta’limning uzlusizlik, uzviylik va izchillik prinsiplari va ularning ta’lim berish jarayonidagi ahamiyati bo‘yicha fikr bildirilgan. Ta’lim tizimi faoliyatining ustuvor tamoyillari hamda yetuk pedagog olimlarning uzviylik va izchillik prinsiplari haqidagi qarashlari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, o‘quv-biluv faoliyati, ta’lim jarayoni, uzviylik, izchillik, uzlusizlik prinsiplari, tamoyillar, innovatsion yondashuv, didaktika, “Buyuk didaktika”asari.

Аннотация

В данной статье представлен обзор основных принципов системы образования, принципов непрерывности, преемственности и последовательности образования и их значения в образовательном процессе. Приведены приоритетные принципы функционирования системы образования, а также взгляды зрелых педагогов на принципы преемственности и последовательности.

Ключевые слова: образование, учебно-познавательная деятельность, образовательный процесс, принципы преемственности, последовательности, преемственности, принципы, инновационный подход, дидактика, работа “Великая дидактика”.

Absract

This article comments on the basic principles of the educational system, the principles of continuity, continuity and consistency of education and their importance in the educational process. The priority principles of the functioning of the educational system and the views of mature pedagogical scientists on the principles of continuity and consistency have been cited.

Keywords: Keywords: education, educational activities, educational process, continuity, consistency, continuity principles, principles, innovative approach, didactics, the work “Great didactics”.

Ta’lim dunyoni o‘zgartirish uchun foydalanishingiz mumkin bo‘lgan eng kuchli quroldir.
Nelson Mandela

Ta’lim jarayoni ming yillar davomida rivojlanib kelgan va insoniyat o‘zi yashab turgan zamon va makonda doimo tadqiq etishga, yangi bilimlarni kashf etishga intilgan. Insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida yashagan avlod ilm-fanga o‘z hissasini qo‘sishiga, yaratilgan ilmiy, axloqiy, tarbiyaviy bilimlarni turli manbaalar orqali avloddan avlodga o‘tib kelishiga zamin yaratgan. Bu ilmiy bilimlar bizgacha turli yo’llar, turli manbaalar orqali yetib kelgan. Ilm-fan rivojining samarali natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim olish va ta’lim berish jarayoni har doim o‘rganuvchi obyekt uchun ahamiyatli va dolzarb hisoblangan. Ta’lim olish jarayoni turli millatlarda, turli davrlarda farqli ravishda o‘rganilgan bo‘lsada, ma’lum qonun-qoida va tamoyillar asosida tashkil etilgan.

Muqaddas hadislarda keltirilishicha, “ Ilmni hatto Chindan bo‘lsa ham borib o‘rganing ” deyilgan. Mazkur hadisda ilm olish insoniyat uchun naqadar ahamiyatli va bola tarbiyasida muhim omil ekanligini bilib olishimiz mumkin. Albatta, ilm-ma’rifat insonni komolotga va ulug‘likka eltuvchi muhim vosita hisoblanadi. Ta’lim jarayoni murakkab jarayon bo‘lib unda ta’lim beruvchilar va oluvchilar aniq maqsadga yo‘nalgan holda, ta’lim olish jarayonini tizimli, muntazam va uzviy tarzda tashkil etilishini talab qiladi.

Uzviylik va izchillik prinsiplari ta’lim jarayonini tashkil etishga oid tushuncha hamda ta’limning tamoyillari sirasiga kiradi. Ta’lim jarayonining ma’lum aspektlarini ochib berishga xizmat qiladi, ta’lim esa pedagogning amali va nazariy faoliyati bo‘lib, ta’lim oluvchilar tomonidan fanlarning asosi bo‘lgan ilmiy tushunchalarini o‘zlashtirilishi, tegishli ko‘nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonuni va yo‘l-yo‘riqlarini o‘z ichiga oladi. Yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun” ning 3-oddasida “ ta’lim ” tushunchasiga alohida ta’rif berilgan bo‘lib, “ta’lim — ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon ” ekanligi keltirilgan. (1:2). Har qanday nazariy tushuncha va amaliy ko‘nikmalar ta’lim olish jarayonida shakllanadi va o‘quvchilarning yashirin iste’dodlari mazkur jarayonda kashf etiladi. Ta’lim jarayonini amalga oshirishning bir qancha shartlari va talablari mavjud hamda bu jarayon ma’lum qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Mazkur qonunning 4-moddasida ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar bayon qilingan bo‘lib “ta’limning uzlusizligi va izchilligi” prinsipi qonun hujjatlarida o‘z tasdig‘ini topgan.(1:2)

Ta’lim tamoyillari asrlar davomida pedagog olimlar tomonidan o‘rganilib, tadqiq etib kelingan va hali ham o‘z ahamiyatini yo‘qtogani yo‘q. Ta’lim tamoyillari pedagogikaning didaktika bo‘limida asosiy qonuniyat sifatida yoritilgan hamda ta’lim qonuniyatlarini shakllanishiga ko‘pgina olimlar o‘z ilmiy izlanishlari bilan hissa qo‘sghanlar. Ta’lim tamoyillari bu - o‘qitishning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to‘g‘ri hal qilishning asosiy qonuniyatlaridir. Qonuniyat bu - barqarorlik, zaruriyat, u yoki bu hodisalar va jarayonlar o‘rtasidagi mutanosiblik va muhim aloqa hisoblanadi. Ta’li qonuniyatlarasi asosida ta’lim tamoyillari vujudga keladi. *Ta’lim tamoyillari deb*, umumbashariy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan ta’lim olish va ta’lim berish jarayonlarining yo‘nalishi, o‘quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o‘zlashtirishlari, bilim, ko‘nikma va malakalarini vujudga keltirishning asosiy qonun qoidalari yig‘indisiga aytildi. Ta’lim qoidalari o‘quv-biluv jarayoniga qo‘yiladigan ijtimoiy talablar, ta’limni tashkil etish va boshqarishda rioya qilinadigan qoidalari sifatida amal qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, ta’limni jarayonini tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga qo‘yilgan pedagogik talablar ta’lim qoidalari deb ataladi. Ta’lim qoidalari ta’lim jarayoni ishtirokchilari tomonidan qat’iy amal qilinishi kerak bo‘lgan talablardir.

Ta’lim prinsiplari o‘qitishning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihat- dan to‘g‘ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi. **Didaktik tamoyillarining tarixiy asosi shuni ko‘rsatadiki, pedagoglar darsda oldindan ko‘zlagan maqsadlariga ko‘p energiya va vaqt sarflamay aniq maqsadga yetishlari uchun, bir necha avlod olimlari tinimsiz izlanishlar olib borgan hamda didaktik prinsiplar majmui yaratilishiga sababchi bo‘lganlar.** Mamlakatimizning yetakchi pedagog

olimlari R.Mavlonova va boshqalar hammualliflida nashr etilgan “Umumiy pedagogika” asarida ta’lim prinsiplari **ko‘p yillik izlanishlar va munozaralar natijasida pedagogikada yuzaga kelgani hamda dars o‘tishning asosiy tamoyillar tizimi ishlab chiqilganligi haqida bayon qilingan** bo‘lib, ular quyidagilardan iboratdir: -onglilik va faollik, -ko‘rgazmalilik, - tizimlilik va muntazamlilik – mustahkamlik, - **tushunarlilik**, -ilmiylik, -nazariya va amaliyot birligi. **Mazkur tamoyillar pedagogik omma tomonidan umumiyy tamoyillar deb qabul qilingan (2:84)**

Bu tamoyillar ta’lim jarayonini tashkil etishda asosiy qonuniyat sifatida olinadi. Shu bilan birgalikda tizimlilik va muntazamlilik tamoyili mazmunan uzviy va izchil tarzda bayon qilinadi. “Uzviylik” – to‘xtovsiz, muntazam davom etuvchi jarayon tushunchasini anglatadi. “uzviylik” tushunchasi yuqoridagi g‘oyaga asosan – ma’naviy va intellektual shaxs ta’lim – tarbiyasini uzlusiz yo‘lga qo‘yishni anglatadi. Faqat uzlusiz davom etuvchi ta’lim-tarbiya jarayonlardagina shaxs shakllanishi mumkin. Shaxsni shakllantirmsandan, rivojlantirmsandan turib, davlatni ham, jamiyatni ham, rivojlantirish mumkin emas. Uzlusiz ta’lim shaxs rivojlanishiga jadal ta’sir ko‘rsatuvchi eng muhim omildir.

Uzviylik va izchillik tamoyili quyidagi obyektiv qonuniyatlarga suyanadi:

- inson, faqat tashqi dunyoni o‘z tafakkurida aniq aks ettirgandagina, haqiqiy va faol bilimlarga ega bo‘la oladi;

- kishi tafakkurida ilmiy bilimlar tizimini shakllantirishining asosiy usuli, maqsadga yo‘naltirilgan rasmiy ta’limning tashkil qilinishi;

- rasmiy ta’limning tashkil qilinish tartibi, o‘quvchilar imkoniyati va beriladigan bilimning ichki mantiqiy tuzilishidan kelib chiqqanligi;

- bilim berish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilganligi tufayli, bilim berish samarasi, bu bosqichlar orasidagi vaqtning qanchalik qisqa bo‘lishligiga bog‘liq, bosqichlar orasidagi masofa vaqt jihatdan haddan oshib ketsa, bilim berish samara bermaydi;

- agar bilim va uning negizida shakllangan ko‘nikmalar mashq orqali takrorlanib turilmasa, bilim va ko‘nikma yo‘qolib ketadi;

- o‘qitishda tizimlilik va muntazamlikka amal qilinmasa, ta’lim-tarbiya jarayoni susayadi.

Ta’lim qonuniyatlarini tizimga solish va ulardan amaliy faoliyatda foydalanishning mezonlarini o‘rganish hali ham davom etmoqda. Bir qancha pedagog olimlar ta’lim qoidalari tizimini quyidagicha belgilashni afzal deb hisoblaydilar. - ilmiylik- tushunarlilik; - sistemalilik-izchillik; - mustaqillik-faollik; - ko‘rgazmalilik-onglilik; - hayot bilan bog‘liqligi, aloqadorligi-puxtalik.

Ta’lim tizimida qoidalaring vujudga kelishi, rivojlanishi pedagogika fani tarixi bilan ham bog‘liqdir. Ilk bor ta’lim qoidalari Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan buyuk allomalarimiz Abu Nasr Forobi, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi bir qancha mutafakkirlar asarlarida ham uchratish mumkin.

Abu Rayhon Beruniyning ilmiy tushunchalarni egallash usullari, yo‘llari to‘g‘risidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham ahamiyatlis hisoblanadi. U o‘quvchiga bilim berishda:

- o‘quvchini zeriktirmaslik;

- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o‘rgatavermaslik;

- uzviylik, izchillik;

-yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko‘rgazmali bayon etish va hokazoga e‘tibor berish kerakligini ta’kidlaydi.

Bu borada g‘arb olimlarining ham ilmiy izlanishlari mavjudki, ularning izlanishlari sohani rivojiga ulkan hissa qo‘shtigan. *Pestalotstsining* ta’lim metodlari, tarbiya haqidagi nazariy, didaktik fikrlari bolaning izchilllikda rivojlanishini ta’minlovchi mashqlarni to‘g‘ri tanlash, bolani o‘z tabiiy imkoniyatlarini uyg‘unlikda namoyon etishini ta’minalash haqidagi qarashlari, shaxsiy tajribalari asosida yuzaga keldi. Pestalotsi boshlang‘ich ta’limni osondan murakkabga, ya’ni induktiv usul asosida tashkil etishni tavsiya qiladi, bunda uzlusizlikka alohida e’tibor qaratadi. U ana shu didaktik qonuniyatga asoslanib, ta’limda birinchi bor bolalarni ona tili, sanash va o‘lchashga o‘rgatish metodikasini ishlab chiqdi. U yaratgan bu uslublarda bola tarbiyasi bilan mashq‘ul bo‘lgan har bir ona, tarbiyachi, pedagog o‘z faoliyatida muvaffaqiyatli foydalandi.

Ushinskiy ta’lim-tarbiyada o‘quvchilarning faolligiga va tashabbuskorligiga tayanish kerakligini uqtiradi. Uning fikricha, ta’lim o‘quvchilarga to‘liq bilim berishi va malakalar hosil qilishi uchun, u aniq-ravshan, shu bilan birga, izchilllikda, tashqi olam bilan uzviylikda, ko‘rgazmalilik asosida bo‘lishi kerak.

Russoning ta’kidlashicha, tarbiyaning maqsadi tarbiyalanuvchini barkamol inson qilib tarbiyalash, unda har bir inson egallashi zarur bo‘lgan sifatlarni tarkib toptirishdir. Russoning uqtirishicha, tarbiyaning uchta manbai bor: tabiat, atrof-muhit, odamlar. Tarbiyada muayyan natijaga erishish uchun ularning o‘rtasida uzviylik bo‘lishiga e’tibor berilishi kerak. Ta’lim maskanidagi ta’lim-tarbiya bilan oiladagi tarbiyaning uzviylikda bo‘lishi tarbiyalanuvchining shaxs sifatida rivojlanishida muhim omil bo‘lishi shubhasizdir.

Djon Dyuining pedagogik kontseptsiyasida XX asr boshlarida, ayniqsa Amerika pedagogikasida maktab ta’limi masalalari bo‘yicha pragmatik (yunoncha «pragma» – harakat, amaliyot) g‘oyasi keng tarqaldi. Pedagogikada mashhur pragmatizm tarafdori Djon Dyui (1859-1952-yillar) maktab ta’limining o‘z kontseptsiyasini yaratishga ko‘p urindi. Bu yo‘nalishlar vakillari (Dj.Dyui, G.Kershenshteyner) o‘qitish bu o‘quvchining “tajribasini qayta tashkil etish” uzlusiz jarayoni deb hisoblaydilar.

Maktab tarixida shakllangan ta’lim qoidalarini tadqiq qilish, tartibga solish va pedagogik talablar sifatida asoslash esa Yan Amos Komenskiy nomi bilan bog‘liqdir. U o‘zining mashhur “Buyuk didaktika” asarida pedagogik amaliyotdagi qonuniyatlarning aksariyatini teran o‘rganib, tadqiq qilib, izohlab bergen hamda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilishni tavsiya etadi.

- 1.Onglik va faollik.
2. Ko‘rsatmalilik.
3. Izchilik va tizimlilik.

4. Mashq qilish, bilim va malakalarni puxta egallash tamoyillarini o‘z asaridda muhim ekanligini ta’kidlab o‘tadi.

Buyuk chex pedagogi Y.A.Komenskiy ta’lim jarayonini **tizimli** bo‘lishini talab qiladi. Ta’lim - tarbiya oluvchiga beriladigan ilmiy material asosiy qoidalar tariqasida qisqa va aniq yoritilishi kerak. Ta’lim jarayonida dalillardan xulosalarga, misollardan qonuniyatlarga o‘tish, dalillar va misollarni qoidalar tizimiga solib, umumlashtirib berish lozim, aks holda tushunchalarning tizimsiz uyumi hosil

bo‘lishi mumkin. Aniq tushunchalardan mavhum tushunchalarga, ya’ni osondan qiyingga, umumiydan xususiyga o‘tish kerakligini tavsiya qiladi; dastlab narsa, ya’ni hodisaga atroflicha ta’rif berib, so‘ngra uning turli jihatlarini ayrim-ayrim tadqiq etish kerakligini ko‘rsatadi. **Izchillik prinsipida** kun, oy, yilga vazifa qo‘yish va uni amalga oshirish uchun intilish kerakligi aytildi. Bunda - aniq vaqt ni belgilash, - o‘qishning bola yoshiga mos bo‘lishi, -material izchillik bilan o‘rganilishi, ya’ni bugungi material ertangi bilan bog‘lanishi va keyingi o‘tiladigan materiallarga yo‘l ochishi shart. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ta’lim jarayoni murakkab va ko‘p qirrali jarayon. Ta’lim olish jarayoni samarali bo‘lishi talaygina omillarga va qonuniyatlargacha bog‘liq. Mana shu qonun-qoidalar, qonuniyatlar har bir fan va har bir ilm yo‘nalishi uchun muhim hisoblanadi. Bu qonuniyatlar ming yillar davomida ilm-fan rivoji jarayonida sayqallanib o‘zining eng samarali va muhim aspektlarini saqlab qolgan. Yuqoridagi olimlar izlanishlaridan ham shuni bilib olish mumkunki, ta’lim prinsiplari pedagog olimlarning ko‘p yillik tajriba va kuzatishlari jarayonida hosil bo‘lgan. Bu jarayonda uzviylik va izchillik ta’lim jarayonini samarali bo‘lishini ta’minlovchi dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan qonuniyat hisoblanadi.

Foydalanimanligi adabiyotlar

1. “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun” Toshkent-2021. Qonuning 3-4- moddalari.
2. R .A .Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova , M .K .Shirinov, S.Hafizov. “UMUMIY PEDAGOGIKA” O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtacha maxsus ta’lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan TOSHKENT – 2018. 84-bet
3. O‘.M.Asqarova, M.Xayitboyev, M.S.Nishonov PEDAGOGIKA Oliy ta’lim muassasalarini uchun darslik TOSHKENT - «TALQIN» - 2008